

## QADIMGI TURKIY LUG‘ATLARDA QO‘LLANILGAN O‘SIMLIK NOMLARINING LEKSIK– SEMANTIK TAHLILI

*Tog‘aynazarova Orzigul  
Eshdavlatova Lolaxon*

*TerDU, O‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari  
Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda Xolmurzayevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi turkiy lug‘atlar tarkibidan joy olgan o‘simlik nomlarining hozirgi kundagi muqobili, so‘zliklarining leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, qiyoslash- chog‘ishtiruv metodlaridan foydalangan holda xulosalar asoslab o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘simlik, lingvistik tahlil, leksik-semantik tahlil, qadimiy lug‘atlar, qiyoslash – chog‘ishtiruv metodlari, fonetik tahlil, fitonimlar, tariq, piyoz, bug‘doy, isiriq.

Turkiy tillardagi o‘simlik nomlarini ifodalovchi leksemalar va ularning tavsifiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar, dissertatsiyalar va ayrim maqolalar e‘lon qilingan va haligacha tadqiq etilib, ushbu yo‘nalishning yangidan yangi qirralari namoyon bo‘lmoqda. O‘simlik atamaları haqida gap ketar ekan, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ushbu tur ma’nosini ifodalovchi leksemalarning yaratilish davri juda qadimgi ibtidoiy jamoa tuzumi davrlariga borib taqaladi. Kishilik jamiyati shakllana boshlagan va insonlar o‘rtasida aloqa munosabat, ko‘payish jarayonlari paydo bo‘la boshlagach, ongli ravishda borliqdagi alohida nomlar bilan atashga ehtiyoj sezila boshlaydi va shu tariqa o‘simlik atamaları vujudga keladi. Ushbu tadqiqot ishining asosiy tadqiq obyekti sifatida XI–XIV asrlarda yaratilgan qadimgi lug‘atlar (“Devonu lug‘otit turk” (keying o‘rinlarda MK), “At-tuhfatuz zakiyati fil lug‘atit turkiya” (keying o‘rinlarda “At-tuhfat”), “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘atlarda qo‘llanilgan o‘simlik atamalarining lingvistik tahlili amalga oshirildi.

Ushbu lug‘atlarning boshqa lug‘atlardan ajralib turadigan asosiy xususiyatlari lug‘atlar tarkibida kelgan turkiy so‘zliklar leksikasi, morfologiyasi va fonetikasi bir-biriga, shuningdek, boshqa tillar bilan ham o‘zaro qiyosan o‘rganilib, lug‘at darajasiga yetkazilgan. Tildagi har qanday leksema muayyan shakl va mazmunning o‘zaro leksik-semantik munosabatidan iborat murakkab struktura bo‘lib, uning ma’no tuzilishida bir qancha komponentlar o‘zaro birlashadi. Masalan, ўкўп – tariq (88); ўрўк - shaftoli, o‘rik, olxo‘ri mevalarining umumiy nomi (99); ипўк – yantoq (101); аба башў - bodring shaklida tog‘larda o‘sovchi bir o‘t, uning poyasi tikanli bo‘ladi. Tog‘liklar uni yeydilar (114); армўт - nashvati, olmurut (121); Андўз - rosan; yerdan qazib olinadigan o‘simlik ildizi. Otlarning qorin og‘rig‘i kasaliga da’vo qilinadi (139); иңлўч

- sassiq sarimsoqqa o'xshagan bir tog' o'ti; kabob bilan yeyiladi (138); – “Devonu lug'otit turk”da; cyғan - piyoz (26); тара - sabza , ko'kat (27) ; cipimcaq , capimcaq - sarimsoq , chisnok (37); – “Attuhfatuz zakiyati fil lug'otit turkiya”da; nargis - oq rangli gulning bir turi, bo'tako'z gul (ochilgan guli ko'zga o'xshab ketganidan badiiy adabiyotda o'xshatish yo'li bilan ko'z ma'nosida ishlatiladi) (Boburnoma uchun qisqacha izohli lug'at ) (119); rayohin - rayhonlar, hushbo'y o'simliklar; “Tarh bila chamanlar qilib, chamanlar atrofida hushrang va hushbo'y gul va rayohin tikmak kerak” (Boburnoma uchun qisqacha izohli lug'at) (139). Ushbu so'zliklar asosida ayrim lug'atlarning leksik-morfologik tahliliga to'xtalib o'tishimiz mumkin. Masalan; “**bug'doy**” so'zi – “Devonu lug'otit turk”da asarida “**ашлік**” shaklida qo'llanilgan (137b). “At-tuhfat” asarida esa **бүдәј** shaklida qo'llanilgan. Ammo bu so'zlik turkman tilida **буғдај** tarzida qo'llanilgan. Shuningdek “**piyoz**” o'simligi (MK) da **соғун** shaklida aks ettirilgan. Chigilchada bu so'zligimiz **күшғүнді** (454) shaklida qo'llanilgan. O'g'uzlar tog' piyozini **көwүргән** (476) deb ataydilar.

Mazkur lug'atlarimizni kuzatish jarayonida daraxt nomlarining o'zgacha nomlanganligini ko'rishimiz mumkin: Masalan, terak so'zligi (MK) da тэpак (390), “At-tuhfatda” ham тэpак shaklida qo'llanilgan. Chinor daraxti (MK) da чүнүк (369), “Древнетюрская словарь” lug'atida **šünük** shaklida qo'llanilgan.(647)

Mahmud Qoshg'ariy “Devonu lug'otit turk” asarida ismaloq leksemasini fonetik jihatdan turlicha nomlanganligini ko'rsatib o'tgan. Masalan: Rum ismalog'ini – бустулі , бүйстәлі (454).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, etnografik adabiyotlarning guvohlik berishicha, o'simlik nomlarining nafaqat fonetik jihatdan balki lahjalar kesimi doirasida ham farq qilganini kuzatishimiz mumkin. Davrlar o'tishi, avlodlar almashinishi natijasida lug'atlar tarkibidagi fitonim so'zlarda ham ma'lum bir darajada fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar yuz beradi. Buning natijasida eski so'zliklar chiqib ketib, o'rniga yangi so'zliklar kirib keladi. Ammo shunisi ayonki, eski so'zliklar yangi so'zliklar yaratilishi uchun asos va tayanch poydevori vazifasini o'tab turadi. Yangi so'zliklar paydo bo'lsa ham, ularda eski so'zliklarning oz bo'lsa-da qiyosi sezilib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Издательство “наука” ленинградское отделение, 1969.
- 4.”Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug'at – Andijon: OAJ, 2008.

5. Xolnazarov U. E. METAPHOR AS OBJECT OF LINGUOCULTURAL STUDY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – С. 433-436.

6. Xudoyberdiyeva G. A. Lexical synonym level in Uzbek //ISJ Theoretical & Applied , Science03 (83). – 2020. – С. 61-66.

7. Xidirova I., Xidirova N. Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family) //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 196-199.

8. Raxmonjonova G., Xidirova I. CHORTOQ SO ‘ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 188-189.